

XORIJIY TAJRIBA KONTEKSTIDA INKLYUZIV TA’LIMDA TALABALARNING O‘Z-O‘ZINI PERSONALLASHTIRISH JARAYONINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Shamsiddinova Adiba Muzaffar qizi

Namangan davlat universiteti

mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xorijiy tajriba kontekstida inklyuziv ta’limda talabalarning o‘z-o‘zini personallashtirish jarayonini rivojlantirish omillari tahlil qilingan. AQSH, Finlyandiya, Shvetsiya va Singapur ta’lim tizimlarida qo‘llanilayotgan innovatsion yondashuvlar asosida individual va shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, didaktik shart-sharoitlar, pedagogik qo‘llab-quvvatlash va zamonaviy texnologiyalarning o‘rni asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, personallashtirish, individual yondashuv, xorijiy tajriba, didaktik shart-sharoitlar, innovatsion texnologiyalar.

Аннотация: В данной статье анализируются факторы развития процесса самоперсонализации студентов в инклюзивном образовании в контексте зарубежного опыта. Рассматриваются инновационные подходы, применяемые в образовательных системах США, Финляндии, Швеции и Сингапура, направленные на организацию индивидуализированного обучения. Также обоснованы дидактические условия, педагогическая поддержка и роль современных технологий.

Ключевые слова: инклюзивное образование, самоперсонализация, индивидуальный подход, зарубежный опыт, дидактические условия, инновационные технологии.

Abstract: This article analyzes the factors of developing students’ self-personalization process in inclusive education in the context of international experience. It examines innovative approaches used in the education systems of the USA, Finland, Sweden, and Singapore aimed at organizing individualized learning. The study also highlights didactic conditions, pedagogical support, and the role of modern technologies.

Keywords: inclusive education, self-personalization, individual approach, international experience, didactic conditions, innovative technologies.

XXI asr ta’lim tizimida insonparvarlik, teng imkoniyatlar yaratish, shaxsni qadrlash va uning individual ehtiyojlarini inobatga olish tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim sohasida yuz berayotgan global islohotlar va pedagogik innovatsiyalar natijasida inklyuziv ta’lim tizimi kundan-kunga tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi - turli imkoniyatlarga ega bo‘lgan, jismoniy yoki psixik rivojanishida muayyan farqlarga ega talabalar uchun teng va sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratishdan iborat bo‘lib, bu jarayonda har bir shaxsning o‘ziga xos xususiyatlarini, ehtiyojlari va salohiyatini hisobga olgan holda individual yondashuvga alohida e’tibor qaratiladi. Bunday shart-sharoitda talabalarning o‘z-o‘zini personallashtirish jarayonini rivojlantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. [5]. Bu tushuncha ta’lim oluvchining shaxsiy ehtiyojlari,

qobiliyatlari, qiziqishlari va kelajakka oid maqsadlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini individuallashtirish, faol o’quv pozitsiyasini shakllantirish, o’z o’quv trayektoriyasini mustaqil belgilash qobiliyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Zamonaviy pedagogik nazariya va amaliyotda “o’z-o’zini personallashtirish” fenomeni ta’lim jarayonida shaxsni sub’ekt sifatida shakllantirish va ining ichki salohiyatini to’liq ro’yobga chiqarishga xizmat qiladigan muhim mexanizmlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Xorijiy davlatlar tajribasida inklyuziv ta’limda talabalarning o’z-o’zini personallashtirishni rivojlantiruvchi didaktik shart-sharoitlar:

AQSH tajribasi :

Individualized Education Programs (IEP) - har bir imkoniyati cheklangan talabaga moslashtirilgan individual ta’lim rejaları tuziladi. Unda shaxsiy maqsadlar, rivojlanish darajasi va zarur ko’mak turlari belgilanadi.

Universal Design for Learning (UDL) - barcha talabalar uchun o’qitishning universal modellari joriy etiladi: bir xil bilimni har xil usullar orqali o’zlashtirish imkoni yaratiladi (audio, vizual, amaliy).

Co-teaching inklyuziv sinflar - umumiy va maxsus pedagoglar hamkorlikda dars o’tadilar, bu esa har bir talabaga individual yondashuv imkonini beradi.

Finlandiya tajribasi:

3 bosqichli ta’lim ko’magi (RtI modeli) - talabalar rivojlanishiga qarab umumiy, kuchaytirilgan yoki mazsus ta’lim ko’magiga ega bo’ladilar. Bu tizim har bir talabaning shaxsiy ehtiyojlariga moslashadi.

Co teaching - birgalikda dars berish - sinfda bir vaqtning o’zida ikki o’qituvchi bo’lib, biri asosiy, ikkinchisi esa qo’llab-quvvatlovchi rolini bajaradi. Bu ta’limda tenglik va shaxsiylashtirishni ta’minlaydi.

Pedagogik sezgirlik - o’qituvchilar talabalarning shaxsiy ehtiyojlarini tez va aniq angelay olish, turlicha o’quv uslublarini qo’llash bo’yicha maxsus o’quv kurslaridan o’tadilar.

Shvetsiya tajribasi: [6].

Yurak, ong va qo’l’ modeli - bu model o’qituvchi tayyorlashda qo’llaniladi. Unda empatiya (yurak), bilim (ong) va amaliy ko’nikmalar (qo’l) uyg’unligiga e’tibor qaratiladi. Bu orqali inklyuziv ta’lim madaniyati shakllantiriladi.

Moslashuvchan ta’lim muhiti - maktablar va universitetlarda inklyuzivlikni ta’minlovchi huquqiy asoslar mavjud. Ota-onalar, psixologlar va pedagoglar o’rtasida yaqin hamkorlik yo’lga qo’yilgan.

Differensiyallashgan o’qitish - ta’lim individual ravishda moslashtiriladi: har bir qobiliyat va ehtiyojlarga ega talabalar uchun turli uslubdagi darslar tashkil etiladi.

Singapur tajribasi:

Character and citizenship education (CCE) - ta’lim jarayonida ijtimoiy emotsional ko’nikmalar (motivatsiya, muloqot, mas’uliyat)ni shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Bu shaxsiy rivojlanishni qo’llab-quvvatlaydi.

Lokal va markazlashgan moslashuv - har bir maktab o’zining ta’lim dasturini mahalliy ehtiyoj va talablar darajasiga qarab moslashtiradi. Bu personallashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. [12].

Jamoat va oila bilan hamkorlik - “KidSTART” va “COMPASS” kabi dasturlar orqali ota-onalar, jamoat tashkilotlari va maktab o’rtasida yaqin hamkorlik ta’minlanadi. Bu talabalarning shaxsiy va ta’limiy rivojiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Inklyuziv ta’limda personallashtirish - har bir talaba shaxsiy ehtiyoj va qobiliyatiga mos ravishda ta’lim olishi lozim. Buni ta’minlash uchun: erta diagnostika, individual ta’lim rejalari, ota-ona va jamoat bilan hamkorlik, emotsional va ijtimoiy qo’llab-quvvatlash talab etiladi.

AQSH - Individualized Education Programs (IEP) - bu har bir imkoniyati cheklangan talabaning ta’lim jarayoni uchun huquqiy asosda shakllantiriladigan shaxsiy ta’lim rejasi. Ushbu reja o’quvchi, ota-ona, mutaxassis va pedagog hamkorligida tayyorlanadi. Asosi Vigotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi bilan uyg’un; har bir talaba o’z qobiliyatiga yaqin darajadagi faoliyat bilan rivojlanadi.

Muhimligi: O’zbekistonda mazsus ehtiyojli talabalar uchun shaxsiy ta’lim rejalari keng tarzda qo’llanilmaydi, har bir talabaning shaxsiy rivojlanish yo’lini aniqlash va nazariy asosda monitoring qilish imkoni kam.

Joriy etilsa: har bir talabaga moslashgan ta’lim strategiyasi, talaba-o’qituvchi-ota-on hamkorligi mustahkamlanadi, ta’lim jarayonida shaxsni markazga qo’ygan yondashuv rivojlanadi.

Finlandiya - PtI modeli (Response to Intervention) - talabalarni uch bosqichli qo’llab-quvvatlash tizimiga asoslangan :

1. barcha uchun umumiy ta’lim
2. Ehtiyojli bolalar uchun kuchaytirilgan ko’mak
3. Individual maxsus yordam

Bu model o’z-o’zini boshqarish va o’rganishga ichki motivatsiya nazariyasiga to’liq tayanadi.

Muhimligi: bizda ko’pincha ‘bir xil standart’ asosida ta’lim tashkil etiladi, talaba muammoga duch kelganda, tizimli ko’mak tizimi mavjud emas.

Joriy etilsa: ta’limda erta diagnostika yo’lga qo’yiladi, personallashtirish va moslashtirish jarayonlari kuchayadi, har bir talaba imkoniyati doirasida rivojlanish imkoniga ega bo’ladi.

Shvetsiya - ‘Yurak, ong va qo’l’ pedagogik modeli - bu model insonparvarlik nazariyasiga asoslangan. Shvetsiyada o’qituvchi faqat bilim berish emas, balki empatiya, ma’naviy qo’llab-quvvatlash va ijtimoiy faollikni tarbiyalovchi shaxs sifatida qaraladi.

Muhimligi: bizda ko’p hollarda ta’lim jarayoni ma’lumot berishga, qaratilgan, emotsional va ijtimoiy qo’llab-quvvatlash kam rivojlangan.

Joriy etilsa: o’qituvchi nafaqat o’qituvchi nafaqat o’qituvchi, balki mentor va yo’lboshchi sifatida faoliyat yuritadi, talabalarda ijtimoiy empatiya va mas’uliyat kuchayadi. Ta’lim muhiti insonparvar va shaxsiylashgan bo’ladi [11].

Singapur - SEL (Social Emotional Learning) va CCE (Character and Citizenship Education) - Singapur ta’lim tizimida shaxsiy rivojlanishga katta e’tibor beriladi, SEL nazariyasi talabalarda o’z-o’zini anglash, emotsiyani boshqarish, ijtimoiy aloqalar, mas’uliyatli qaror qabul qilish kabi ko’nikmalarni shakllantiradi [12].

Inklyuziv ta’limda ahamiyati: inklyuziv ta’lim muhitida har bir talaba turlicha qobiliyatga, o’qish uslubiga, shaxsiy holatga ega. O’z-o’zini personallashtirish orqali har bir talabaga o’ziga xos, erkin, izchil va ma’noga boy ta’lim jarayoni yaratiladi. Bu esa[18]:

- shaxsiy motivatsiyani kuchaytiradi;
- ta’limga nisbatan ijobiy munosabat uyg’otadi;
- o’z qobiliyatlarini ochishga imkoniyat yaratadi;
- ijtimoiy adaptatsiyani osonlashtiradi;
- shaxsning o’zini anglashini va qabul qilishini ta’minlaydi.

O’z-o’zini personallashtirish - bu shaxsning o’ziga oid ta’limiy va shaxsiy rivojlanish modelini yaratish, uni boshqarishi va doimiy ravishda takomillashtirib borishi jarayonidair. Bu jarayonda shaxs: faol sub’ektga aylanadi, ya’ni u ta’limning ob’ekti emas, balki uni boshqaruvchi va shakllantiruvchi asosiy ishtirokchiga aylanadi. Shu boisdan, inklyuziv ta’lim tizimida ushbu tushunchani nazariy va amaliy jihatdan o’rganish, talabalarni o’z-o’zini personallashtirishga yo’naltirilgan pedagogik sharoitlarni yaratish o’ta muhimdir. Zamonaviy pedagogika ta’lim jarayonida talabani markazga qo’yish, uning shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va ruhiy-emotsional holatini inobatga olgan holda ta’limni tashkil etishga alohida e’tibor qaratmoqda. Bunday yondashuvning ilmiy asoslaridan biri - o’z-o’zini personallashtirish jarayonidir. Bu jarayon shaxsning shaxsiy rivojlanish yo’lini shakllantirish, ta’limga shaxsiy munosabatini aniqlash, mustaqil ta’lim strategiyalarini tanlash va ularni amalga oshirishini ifoda etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrida qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi O’RQ-637-sonli Qonuni (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son) <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O’zbekiston Respublikasining “Bola huquqlari kafolatlari to’g’risida”gi Qonuni // O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2008, 12-son.
3. Bola huquqlari to’g’risidagi konvensiya (Yunisef). – T., 2014. – 54 b.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrda PF-5270-sonli “Nogironligi bo’lgan shaxslarni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” gi Farmoni // O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017 yil 11 dekabr, 49-son, 1195 modda.
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/docs/4545884>
6. Atabayeva N.N. Talabalarga "Inklyuziv ta’lim" fanini raqamli ta’lim muhitida o’qitish metodikasi // Ped.f.f.d. (PhD) diss. avtoreferati, Namangan – 2025, 57 b.
7. Badalov A.R. Oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak pedagoglarni inklyuziv ta’lim sharoitida ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi // Ped.f.f.d. (PhD) diss. avtoreferati, Namangan–2025, 54 b.

8. Барамыгина Т. В. Психолого педагогические условия развития саморегуляции у студентов с различными стилями совладающего поведения // Молодой ученый. – 2021. – № 49 (391). – С. 326–329.
9. Berdiyeva X., Muratova D., Malikova D. Inclusive Education in Uzbekistan and Its Role in Society Development // Acta NUUZ. – 2025. – №2(55). – S. 65–72.
10. Бикбаева М.Р. Стимулирование учения старшеклассников в инклюзивной образовательной среде. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук, Казань -2021, 22 с.
11. Qayumova, D.N. Inklyuziv ta’lim muhitida bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent – 2023. 51-b.
12. Qurbonova M.F. Inclusive Education and New Pedagogical Approaches Used in Higher Education System in Uzbekistan // International Journal of Scientific Trends. – 2025. – T. 7, №1. – S. 15–23.
13. Qodirov, M. M. Inklyuziv ta’lim tizimida malakali o‘qituvchilarni tayyorlashda uzluksiz ta’limning ahamiyati // Scientific progress: Journal of Advanced Research and Technological Education Sciences (JARTES). – 2023.